



ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA EMPATIK QOBILIYATLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

¹Omonova Sevara
Mamirjonovna

²Jabborova Oygul

¹Qo'qon DPI "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

²QDPI talabasi

Annotatsiya: mBugungi kunda axborot texnologiyalar rivojlangan davrda insonlar, ayniqsa yoshlar o'rtasida jonli muloqotlar kamayib, empatik munosabatlarning namoyon bo'lish shakli o'zgarib bormoqda. Empativ munosabatlarning psixologik sabablarini o'rganish, empativlikni shakllantirishga sabab bo'luvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda irodaviy regulyatsiyani rivojlantirishda lokus nazoratning ahamiyatini oshiruvchi psixoproflaktik va psixokorreksion ishlar olib borilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Annotation: Today, in the era of advanced information technologies, live communication between people, especially young people, is decreasing, and the form of manifestation of empathic relations is changing. Studying the psychological causes of empathic relationships, determining the factors and conditions that lead to the formation of empathy, and conducting psychoprophylactic and psychocorrective work that increases the importance of locus of control in the development of volitional regulation is one of the urgent issues.

Insonning ma'naviy va axloqiy rivojlanishining psixologik mexanizmlari sifatida "empatik qobiliyat" fenomeni, zamonaviy psixologiya uchun eng qiziq, dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ilmiy muammo sifatida empatik qobiliyat shaxsni shakllantirishning umumiy muammolari doirasiga kirib, uni tushunmasdan, insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti hamda uning boshqa insonlarning holatiga bo'lgan hamdardlik munosabati haqida so'z yuritish, haqiqatdan xoli sanaladi. Empatik qobiliyat va empatik munosabat namoyon bo'lishining psixologik jihatlariga to'xtalib o'tishdan oldin, "empatiya" tushunchasining fanda ilk bor qo'llanilishi bilan bog'liq holatlarga oydinlik kiritish bizningcha, eng maqsadga muvofiq ish hisoblanadi.

Qoidaga ko'ra, "empatik qobiliyat" so'zini tor ma'noda, hamdardlik, boshqa insonlarning psixologik holatini tushunish sifatida ta'riflansa, kengroq mazmunga ko'ra, u insonning boshqa odamlarning ichki dunyosi haqidagi irratsional bilimi sifatida, shuningdek, insonning boshqa birovlarining tajribasiga hissiy munosabati yoki o'ziga xos ijtimoiy hissiyot sifatida tushuniladi. Fanda "empatiya" atamasini ilk bor E.Titchener kiritgan bo'lib, muallif falsafiy an'analarda rivojlangan "simpatiya" haqidagi g'oyalarni, empatiyaga oid qator ilmiy yondoshuvlar bilan umumlashtirishga erishgan. Hozirga qadar, fanda empatiya tushunchasini ilmiy asoslashga qaratilgan

ko‘plab ilmiy nazariyalar, kontseptsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni tahlil etish, muammoga nisbatan o‘ziga xos yondashuvni talab etadi [Дорошенко Т. В. Эмпатия как фактор мотивации в профессиональном становлении личности: автореф. дис. ... канд. психол. наук / Т. В. Дорошенко. – Хабаровск, 2007. – 24 с.]. Empatiyani ong imkoniyatlari va psixoanaliz ta’limoti bilan bog‘lab tushuntirish holati Z.Freyd, K.G.Yung, K.R.Rodjers, A.S.Rachman, K.T.Montag, K.K.Lamm, M.L.Xofmann, J.E.Hakansson, A.P.Goldstein, L.S.Greenberg, M.H.Davis, Ch.D.Batson, G.T. Barrett-Lennard kabi xorijiy mualliflarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Psixoanalizda empatiyani Z.Freyd quyidagicha ta’riflaydi “empatiya bu – hissiy holatlarni boshqalarga o‘tkazish”, o‘z motivlarini, his-tuyg‘ularini va mulohazalarini himoya vositasi sifatida ko‘chirish, uni boshqa shaxslarga taqdim etish jarayonidir. Bundan hatto sub’yektning o‘zi ham behabar bo‘lishi mumkin.

Empatiya – bu “kutilmagan hodisadir”. Empatik qobiliyatlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xosliklari hamda empatiyani psixik hodisa sifatida o‘rganishga oid ilmiy yondoshuvlar tizimida psixoanalitik yondashuv ham, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, ilmiy g‘oyalar majmui sanaladi. 1905 yilda Z. Freyd birinchilardan bo‘lib, empatiya tushunchasiga ta’rif berdi: “Biz bemorning ruhiy holatini hisobga olamiz, o‘zimizni shunday holatga qo‘yib ko‘ramiz va men bemorning holatini o‘zining holatim bilan solishtirishim orqali, uni tushunishga harakat qilaman” [Фрейд З. Введение в психоанализ: лекции / З. Фрейд. М.: Эксмо, 2017. – 64 с]. Demak, kasallikdagi holatni tushunish yoki o‘sha vaziyatni o‘zida his etish bu – empatik munosabat bildirish yoki boshqalarga hamdard bo‘lish, g‘amxo‘rlik qilish kabilarda o‘z aksini topar ekan. K.G.Yung esa, empatiyaning mohiyatini ob’yektdan “sub’yektiv mazmun”ni qidirish deb ta’riflaydi: “Empatiyaning mohiyati sub’yektiv mazmunni proektsiya qilishdan iborat bo‘lganligi sababli, undan oldingi ongsiz harakat qarama-qarshi xususiyatga ega bo‘lishi kerak, ya’ni bu ob’yektning samaradorligini qaytarish jarayonidir. K.G.Yung empatiyani ekstroversiya, moslashish va himoya qilish mexanizmi sifatida talqin etadi [Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. М., 2013. – 497 с.].

Demak, empatiya idrok etish jarayonining bir turi bo‘lib, uning xususiyati shundaki, his-tuyg‘u yordamida ob’yektga ba’zi muhim psixologk xususiyatlar singib ketadi va shu bilan ob’yekt introspektsiya qilinadi. Empatiya muammolari bo‘yicha, turli-tuman ta’riflar va ilmiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular boshqa shaxsning motorli va samarali reaksiyalariga asoslangan hissiy empatiya, kognitiv empatiya, predikativ empatiya kabilarda namoyon bo‘ladi. Empatiyaning maxsus shakllari sifatida, kognitiv empatiya alohida ajralib turadi.

I.Bauerning yozishicha, empatik tajribaning uch jihati ajratiladi [Бауэр И. Почему я чувствую, что ты чувствуешь: интуитивная коммуникация и секрет зеркальных нейронов / И. Бауэр ; пер. с нем. И. Тарасовой. - СПб.: Изд-во Вернера Регена, 2009. – 111 с.]:

- 1) aloqa sheriklarining his-tuyg‘ulari, fikrlari, ehtiyojlarini aniq tushunish, axloqiy va estetik darajaning ustunligi;
- 2) atrofda sodir bo‘layotgan voqealarga “hissiyot munosabat”;
- 3) ratsional baholash mezoni va axloqiy aks ettirish holati. D.Golman mutaxassis sifatida, empatiyani “emotsional intellekt” bilan bog‘laydi, u uning kelib chiqishi

sababalariga biroz shubha bilan qarasada, adabiyotlarda empatiya ta'rifi bo'yicha, biroz kelishmovchilik ham uchrab turishini tabiiy holat deb ta'riflaydi. Mijozlarga yo'naltirilgan psixoterapiyada - empatiya tushunchasi «aniq empatiya» va bemorning ichki dunyosiga kirib borish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchi P.A.Miller o'z ilmiy yondashuvida, empatiya rivojlanishini “umuminsoniy ehtiyojlarning” shakllanishi deb hisoblaydi. Yani bu – Ona va chaqaloq o'rtasidagi “suhbat” (V.Stern) va “o'zaro iliq munosabat” kabi tushunchalar ham, empatiya bilan yuqori darajada bog'liq bo'lsa-da, psixologlar tomonidan ona va chaqaloq o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuzatish natijasi – deb tavsiflangan [Miller P. A., Eisenberg N. The relation of the empathy to aggressive and externalizing/antisocial behavior // Psychological Bulletin, 1998, v. 103, p. 324–344.].

A.P.Vasilkovaning navbatdagi ilmiy maqolasida yozilishicha, empatiya yuqori darajada rivojlangan insonlarda yumshoqlik, xayrixohlik, xushmuomalalik, emotsionallik kabi sifatlar yaxshi rivojlangan hisoblanadi. Muallifning aytishicha, empatik qobiliyati yaxshi rivojlangan shaxslar, boshqalar bilan quyidagi sifatleri bilan ajralib turadi: [Василькова А. П. Эмпатия как один из специфических критериев профессиональной пригодности будущих специалистов-медиков: автореф. дис. ... канд. психол. наук / А. П. Василькова. - СПб., 1998. – 17 с.]

diqqat-e'tiborlilik;

boshqalarga g'amxo'rlik;

muloqotda va o'zaro aloqalarda tezkor mo'ljal olish qobiliyati;

o'zaro ta'sirlashuvda demokratik va altruistik strategiyalarining ustunligi;

boshqa odamning og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlariga sezgirlik;

ijtimoiy his-tuyg'ularga va axloqiy tuyg'ularga sezgirlik;

insoniy qadriyatlarga va rasmiy xulq-atvor normalariga yuqori sezgirlik va ijtimoiy tolerantlilik.

Demak, empatik qobiliyatlarni shaxsda bolalikdan rivojlantirib borish, uni shakllantirishda psixologik treninglar, o'yinlardan keng foydalanish, empatiya darajasini baholovchi yangi, ilg'or psixodiagnostik testlar, metodikalar yaratish kabilar, zamonaviy psixologiya uchun, amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan, eng istiqbolli vazifalardan biri sanaladi. Psixologiya fanida empatik qobiliyatlar va empatiya xususiyati rivojlanishini tadqiq etuvchi qator ilmiy yondashuvlar farqlanib, ularning aksariyati, muloqot jarayoni, ta'lim-tarbiya jarayoni, pedagogik faoliyat kabilar orqali ilmiy asoslangan. Masalan, ta'lim ishtirokchilarining emotsional o'zaro ta'sirining, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, empatiyani o'rganishdan ajratilmaydi, ya'ni muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka nisbatan hamdardlik, boshqalarning hissiy holatiga sezuvchanlik, shaxslararo ijobiy ta'sir kabilar, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni shakllantirishda o'ta muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, M.L.Xoffmanning yozishicha, insonlar o'rtasida empatik munosabatlarning yetishmasligi tajovuzkorlik, zo'ravonlik, bezorilik hamda deviant xulq ko'rinishidagi qator xatti-harakatlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun, zamonaviy ta'lim amaliyotida, empatik qobiliyatlarni maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab rivojlantirish, bolalarni hamdardlikka, o'zaro hamjihatlikka o'rgatish eng muhim pedagogik-psixologik vazifalardan biri sanaladi [Hoffman M. L. Empathy and moral

development: Implications for caring and justice. - New York : Cambridge University Press, 2000. – 342 p.]. Muallif ushbu fikrlari bilan mazkur masalada, ta'lim maskanining roli yuqoriligini nazarda tutmoqda. Yuqorida tahlil etilgan nazariy yondashuvlarning mazmunidan kelib chiqib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin: xorij psixologlari tomonidan ko'proq empatik qobiliyatlar masalasi psixoanalitik, kommunikativ ko'nikmalar shakli, shaxslararo munosabatlarda identifikativ baholash malakasi, hissiy tajribaga egalik, qadriyatli munosabat va refleksiv qobiliyat shakli, kabi talqinlarda tushuntirilgan. Biroq, zamonaviy psixologiya ushbu masalada, yangicha, ilg'or tadqiqotlarga zarurat sezmoqda. Va bu borada mahalliy muhitda, keng ko'lamli izlanishlar olib borish zarurati yuqori, deb aytsak xato bo'lmaydi:

Empatiya fenomeni bir tomondan umumpsixologik muammo bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy-psixologik maqomi yuqori sanalgan ilmiy kategoriya sanaladi. Chunki, bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan bildirgan empatik munosabti keyinchalik, eng ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro, millatlararo qadriyat sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ya'ni dunyo miqyosida nochorlarga yordam ulashish, beg'araz ko'mak ko'rsatish, ogir vaziyatlariga hamdard bo'lish, shuningdek, chin ko'ngildan g'amxo'rlik qilish kabi yuksak insoniy sifatlar, shular jumlasidandir.